

“O‘zavtosanoat” Ajda Ochiqlik indeksi bo‘yicha 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** 2022-yil 15-iyundagi PF-154-son Farmoniga muvofiq, davlat organlari va tashkilotlar tomonidan ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi joriy etilgan bo‘lib mazkur ochiqlik indeksi **“0” balldan “100” ballgacha** baholanib, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati samaradorligi **“yashil”**, **“sariq”** va **“qizil”** toifalarga ajratiladi.

Mazkur ochiqlik indeksining 2023-yildagi reytingida “O‘zavtosanoat” AJ ochiqlik borasidagi samaradorlik ko‘rsatkichi **68,18 (o‘rtacha) ball** bilan hisoblandi hamda respublika vazirlik va idoralar o‘rtasida **39 o‘rinda “Sariq” toifadan o‘rin oldi**. Jumladan,

1.1 Davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlikni ta'minlashga mas'ul bo'lgan xodimlar faoliyatining samaradorligini baholash mezonlari bo'yicha **5,64 ball** qayd etilgan. (maksimal 10 balldan).

Reytingdagi o‘rni: 88

1.2. Davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida axborotlarni joylashtirish va elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish holatini baholash mezoni bo‘yicha **17 ball** qayd etilgan. (maksimal 23 ball)

Reytingdagi o‘rni: 77

1.3 Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni qonunchilikda belgilangan axborot resurslarida e'lon qilish va jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimining yo'lga qo'yilishini baholash mezoni bo'yicha **12,50 ball** to'plagan.

Reytingdagi o‘rni: 41

1.4 Byudjet jarayonining ochiqligini ta'minlashga oid ma'lumotlarning rasmiy veb-saytda joylashtirilishini baholash mezoni bo'yicha 4,09 ball natijadorlik qayd etilgan.

Reytingdagi o‘rni: 49

1.5 Ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlar joylashtirilishini baholash mezoni maksimal 10 balldan, **8,50 ball** ya'ni yuqori natija qayd etilgan. 2023-yilga nisbatan o'sish ko'rsatkichi 6,5 barobarga o'sgan.

Reytingdagi o‘rni: 22

№	Ташкилот номи	2024 й	2023 й	Тафовут
2023 йилга nisbatan ўсиш кўрсатганлар				
1.	“Ўзавтосаноат” АЖ	8,5	2	6,5
2.	“Ўзсувтаъминот” АЖ	10	4	6
3.	Тоғ-кон саноати вазирлиги	10	6,5	3,5

1.6 Ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinishi baholash mezonini **3,00 ball** to'plangan. Mazkur indikator jami 4 ta baholash mezonini qamrab olgan bo'lib, ularda belgilangan talablar to'liq ijro etilgan taqdirda, maksimal 4 ball bilan baholanadi.

Reytingdagi o'rni: 60

1.7 Korrupsiya holatlarini barvakt aniqlash va ularning oldini olishda ochiqlik tamoyillaridan foydalanish holatini baholash mezonini jami 9 ta baholash mezonini qamrab olgan bo'lib, ularda belgilangan talablar to'liq ijro etilgan taqdirda, maksimal 16 ball bilan baholanadi. “O'zavtosanoat” AJ mazkur indikatorida **12 ball** to'pladi.

Reytingdagi o'rni: 35

1.1 Davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlikni ta'minlashga mas'ul bo'lgan xodimlar faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarida - 0 ball qayd etilgan Rahbar yoki axborot xizmatlari rahbarining muayyan axborot voqeligi munosabati bilan rasmiy bayonot berishi indikatorini bo'yicha 2024-yilda samarali ishlar olib borildi.

Xususan, 2024-yil mobaynida jami 45 ta muayyan axborot voqeligi munosabati bilan rasmiy bayonot berish holati bo'lgan. Shundan, Video formatdagi bayonotlar soni: 6 ta, matn shaklidagi bayonotlar soni: 39 tani tashkil etadi.

Ayni shu mezonda xorijiy OAVlarda materiallar e'lon qilinishi indikatorida 0,17 ball yuqori ko'rsatkichni yuqorilash maqsadida 2024-yil davomida jami 17ta xorijiy OAVda O'zbekiston avtomobilsozligiga oid materiallar e'lon qilindi.

Qolaversa, ijtimoiy tarmoqlarda onlayn translyatsiyalar deyarli amalga oshirilmagan bo'lsa, 2024-yil davomida “O'zavtosanoat” AJ tizimida bo'lib o'tgan taqdimotlar va uchrashuvlarda jami 27ta onlayn translyatsiya amalga oshirilgan.

2.2 Davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida axborotlarni joylashtirish va elektron davlat xizmatlari ko'rsatish holatini baholash mezonini

bo'yicha – O'z kuchini yo'qotgan normativ-huquqiy hujjatlar e'lon qilish darajasi **0 ballni** tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil mobaynida barcha hujjatlar e'lon qilindi.

Ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi bo'yicha **0 ball** to'plangan bo'lsa, 2024-yilda barcha tegishli hujjatlar saytga joylandi.

Qayta aloqa tizimining samarali yo'lga qo'yilganlik darajasi bo'yicha maxsus guruh tashkil etildi.

Shuningdek, idoraviy bo'ysunuvdagi tashkilotlarning veb-saytiga havolalar saytda e'lon qilindi.

Yangi ma'lumotlar bilan interaktiv tanishish usulda tanishish imkoniyati ham saytga joylandi.

Ma'lumotlarni boshqa tillarga sinxronlash funksiyasi to'liq amalga oshirildi.

Axborotlarning sanasini ko'rsatish tartibi to'liq joriy qilindi.

Jamoatchilik fikrini o'rganish vositasi joriy etilib, natijalar e'lon qilindi.

Ommaviy tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlar muntazam e'lon qilib borilmoqda.

1.3 Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni qonunchilikda belgilangan axborot resurslarida e'lon qilish va jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimining yo'lga qo'yilishini baholash mezonini bo'yicha – 0 ball bilan baholangan indikatorlar bo'yicha yuqori natijalarni qayd etish maqsadida zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, 2024-yil mobaynida Ochiq ma'lumotlar to'plamini passportlash tartibi joriy qilindi.

Ochiq ma'lumotlar to'plami va qayta aloqa samaradorligini baholash tizimi joriy etildi.

Ochiqlikni ta'minlash sohasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlar saytda e'lon qilib borildi.

Ochiqlik sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilindi.

Davlar xaridlarini amalga oshirishga oid tartib-taomillar to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilindi.

1.5 Ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlar joylashtirilishini baholash mezon bo'yicha past natija ko'rsatgan indikator o'rganilib, Ochiq ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan mobil ilovalar takomillashtirishga erishildi.

1.6 Ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinishi baholash mezon bo'yicha **0 ball** qayd etilgan indikator bo'yicha samarali ishlar olib borildi hamda Rahbar bilan bevosita muloqot qilish tizimi tashkil etildi.

1.7 Korrupsiya holatlarini barvakt aniqlash va ularning oldini olishda ochiqlik tamoyillaridan foydalanish holatini baholash mezonida ikkita indikator bo'yicha aniqlangan muammolar bartaraf etildi. Qisman bajarilgan deb hisoblangan indikatorlar to'liq bajarilib saytga joylandi.

Xususan, Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish tizimi joriy etildi.

Korrupsiyaga nisbatan muvofiqlik munosabatini belgilovchi hujjatlar e'lon qilindi.

Qolaversa, keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida o'tkazilgan press-tadbirlar e'lon qilindi.

Korrupsiyaga nisbatan muvofiq munosabatni shakllantirish borasida tayyorlangan targ'ibot materiallari muntazam e'lon qilib borilmoqda.